

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

— 2-2023 —

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.Arslonzoda, O.Maripov	
O'zbekiston Respublikasida davlat arxivlari faoliyatining takomillashib borishi	318
R.Urazova	
Avesto yashlarida Mitraning sifatleri	325
N.Nizametdinov	
Markaziy Osiyoning Xitoy bilan aloqalari tarixi.....	331
I.Burxonov	
Asomiddin O'rinboyev ilmiy merosida Abduxoliq G'ijduvoni tasavvufiy ta'limotiga oid ruq'alarning o'rganilishi.....	338
N.Jumaev	
XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro vohasi dehqonchilik madaniyati tarixidan	342
D.Akramov	
Xalq maorifining nazariy asoslari.....	348

ADABIYOTSHUNOSLIK

G.Oripova	
Mustaqillik davri o'zbek lirikasida ritm va ohangdorlik.....	354
I.Baltayeva	
Adabiy vorisiylkning xorij adabiyotida o'rganilishi.....	359
F.Oxunjonova	
XIX asr oxiri va XX asr boshlarida zullisonaynlik an'anasi takomili (Nodim, Xilvatiy, xayratililar ijodi misolida)	362
D.Uralova	
Ulug'bek Hamdamning "Safar" hikoyasida ramziy obrazlar uyg'unligi.....	366
S.Begmatova	
Jahon adabiyotida distopik asar turlariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	370
A.Yuldashev	
Alisher Navoiy asarlarida so'z tavsifi	374
O.Barziyev	
Farzand taqdiriga murojaat yoki ularga nasihat qilish mavzusiga oid an'anaviy poetik turkumlar	382
D.Sultonova	
Badiiy kriminal asarlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	387
S.Alibekova	
O'tkir Hoshimovning hajviy xarakter yaratish mahorati	392
Sh.Sherg'oziyev	
"Boburnoma" matnida foydalanilgan saj'i mutarrafnig ingliz tili tarjimalarida aks ettirilishi	396
X.To'raxonova	
Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida badiiy tasviriy vositalarning qo'llanilishi	400
D.Hazratkuliyon	
Hozirgi O'zbekiston tojik she'riyatida bediliy uslub an'analariga izdoshlik (Ja'far Muhammad Termiziy she'ri misolida)	403
M.Narziqulov	
Tojik adabiyotida g'azalning mundariyasi va shakli o'zgarishi	410
M.Mirzoyev	
Farzona Xo'jandiy she'rlarida mifologik personajlar badiiy ifodasining xususiyatlari	420

TILSHUNOSLIK

Z.Alimova	
Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha qo'shma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida	425
O.Nazirova	

O'TKIR HOSHIMOVNING HAJVIY XARAKTER YARATISH MAHORATI

МАСТЕРСТВО СОЗДАНИЯ КОМИЧЕСКОГО ПЕРСОНАЛА УТКИРА ХОШИМОВА

UTKIR HOSHIMOV'S SKILL OF CREATING A COMIC CHARACTER

Alibekova Sarvinoz Faxriddin qizi

¹Alibekova Sarvinoz Faxriddin qizi

– Jizzax davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqola O'tkir Hoshimovning hajviy hikoyalari, xususan "Telpak" hikoyasi tahlili orqali satira va yumorning tabiati hamda badiiy xususiyatlariga oydinlik kiritishga bag'ishlangan. Maqolada hikoyaning hajviyot, kulgi vositasida muhim ijtimoiy-siyosiy masalani o'rta qo'yilgan tahlillar asosida ochib berilgan. Shuningdek, adibning hayot haqiqatini hikoyasida aniq ayta olish va o'zi yashagan davrning hajviy tipini yaratish olganligi hikoya qahramoni starshina Eshboyev timsolida ko'rsatib berilgan. Maqolada, hikoya insonni ilmsizlik, kasbini chuqur egallamasa shu holga tushishiga olib kelishidan ogoh qilish da'vat g'oyasini ilgari surgani isbotlangan. Natijada, O'tkir Hoshimovning "Telpak" hikoyasi tahlili jarayonida, adib hajviyotining qirralari va usullari, yozuvchining hajviy xarakter va tip yaratishdagi urinishlari, shuningdek hajv yaratishda badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati aniqlangan.

Аннотация

Статья посвящена выяснению сущности и художественных особенностей сатиры и юмора посредством анализа комических рассказов Уткира Хошимова, в частности повести «Тельпак». В статье на основе анализа выявлено, что в рассказе через юмор и смех представлена важная общественно-политическая проблема. Также умение писателя ярко рассказать правду жизни в своем рассказе и создать комический тип времени, в котором он жил, проявляется в характере героя рассказа Старшины Эшбоева. В статье доказано, что рассказ выдвигает идею предупреждения человека о том, что невежество приведет его к этому состоянию, если он не освоит глубоко свою профессию. В результате в ходе анализа повести «Тельпак» Уткира Хошимова были выявлены аспекты и приемы литературного юмора, попытки писателя создать комический персонаж и тип, а также умение использовать художественные образные средства в создании юмора. определенный.

Abstract

The article is dedicated to clarifying the nature and artistic features of satire and humor through the analysis of comic stories of Utkir Hashimov, in particular the story "Telpak". In the article, it is revealed on the basis of analysis that the story presents an important socio-political issue through humor and laughter. Also, the writer's ability to clearly tell the truth of life in his story and create a comic type of the time he lived in is shown in the character of the hero of the story, Starshina Eshboyev. In the article, it is proved that the story puts forward the idea of warning a person that ignorance will lead him to this state if he does not master his profession deeply. As a result, during the analysis of the story "Telpak" by Utkir Hashimov, the aspects and methods of literary humor, the writer's attempts to create a comic character and type, as well as the skill of using artistic image tools in creating humor were determined.

Kalit so'zlar: hajv, hajviy xarakter, satirik kulgi, layoqatsizlik, byurokratizm, saviyasizlik, qoloqlik, illat, noqislik, kinoya.

Ключевые слова: сатира, комический персонаж, сатирический смех, некомпетентность, бюрократизм, некомпетентность, отсталость, порок, недостаток, ирония.

Key words: satire, comic character, satirical laughter, incompetence, bureaucratism, incompetence, backwardness, vice, deficiency, irony.

KIRISH

Har bir millatning ma'naviy qiyofasi uning adabiyot ahli bilan belgilanadi, dunyoda hech bir millat yo'qki, adabiyoti bilan faxr etmasa. O'zbek adabiyotida xuddi shunday faxrlansa arziydigan yozuvchilar bisyor. Shular qatorida hech ikkilanmay O'tkir Hoshimovni ham sanash mumkin. Shu o'rinda aytish joizki, O'tkir Hoshimov ijodida hajviyot muhim o'ringa ega. Shu bois yozuvchi hajviy hikoyasining eng ichki qirralarini o'rganish, ularni tahlil qilish bugungi kun adabiyotshunosligi uchun juda muhim bo'lgan jihatlardan biridir. Yozuvchi hikoyalari qahramonlari ruhiyatini o'rganish, ularning jonli muhit bilan aloqasini hayotga tatbiq etish, satirik tiplar psixologiyasini ochib berish maqolamizning bosh maqsadidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek xalqining ko'p ming yillik tarixida, uning tabiatidan kelib chiqib hajvning turli xil ko'rinishlari kulgi, latifa, hazil, mutoyiba, askiya, qiziqchilik, masxarabozlik, satira, yumor asrlar osha yashab kelmoqda. Darhaqiqat, "Qadimiy tarixga ega bo'lgan o'zbek hajviyoti har bir davrda o'z kulgisini yaratib keldi. Zero, kulgi xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyot bilan hamohang bo'lib, unga xizmat qilib kelmoqda"[1;7] ekan, ijodkorlar, albatta, o'z badiiyat namunalarida hajvdan unumli foydalanishgan. Va aytish joizki, hajv inson hayotining deyarli barcha sohalariga kirib boradigan va turli xil ijtimoiy munosabatlar subyektlari (kundalik hayotning muhim xususiyatlaridan biri) o'rtasidagi o'zaro ta'sirning noyob vositasi hisoblanadi. O'tkir Hoshimovning "Telpak"[2] hikoyasi ham shunday hajviy asarlar sirasiga kiradi. Hikoyada hajviyotning bir turi sifatida satira o'ziga xos qiyofada namoyon bo'lgan. Endi shu o'rinda satira nima degan savolga to'xtalsak. Satiraning o'zi, aslida, lotincha tildan olingan bo'lib, meshchanning to'lib-toshgan tovog'i degan lug'aviy ma'noni beradi. Adabiy yo'nalish sifatida esa "...ijtimoiy hayotdagi muayyan nuqsonni yoki ayrim guruh va shaxsga xos kamchiliklarni qattiq masxaralab, tanqidiy ruh bilan yozilgan"[3;222] asarga aytilar ekan, O'tkir Hoshimovning "Telpak" hajviy hikoyasida xuddi shu jihat yaqqol ko'zga tashlanadi.

NATIJAR VA MUHOKAMA

O'tkir Hoshimov hajviy hikoyalardagi satirik va yumoristik obrazlar o'zining xilma-xilligi va ifodadagi originalligi bilan ajralib turadi. Ma'lumki, "Xarakter – badiiy adabiyotning umumbashariy muammosi. ...Badiiy adabiyot jonli odamlar xarakterini yaratishi bilan muhim, zarurdir. Har bir zamon, millat adabiyoti insonni qanday nuqtai nazaridan tasvirlashi bilan bir-biridan farq qiladi[4;27]. O'.Hoshimov ijodida ham xarakterlarning takrorlanmas namunasi "Telpak" hajviy hikoyasida uchratish mumkin. Adib satirik obrazlar yaratishda an'anaviy usulda hajviy tavsiflar berish, personajlarning o'z-o'zini fosh etish va boshqa turli tasviriy usullar orqali ochishga e'tibor beradi. Obrazning xarakterini, ruhiyatini bevosita uning so'zlari, xatti-harakatlari orqali yorqin ochib beradi.

Ma'lumki, hajviy asarlarda ko'pincha qahramonning kimligi, qaysi ijtimoiy qatlamga mansubligi, saviyasi, ma'naviyati, madaniyati, xulq-atvori, niyati uning nutqida o'z in'ikosini topadi. O'z asarlarida o'ta murakkab bu usul yordamida ijodkorlar juda ko'plab hajviy obrazlar yarata olish mumkin, lekin buning uchun albatta, ijodkordan juda katta hayotiy tajriba, ilm, badiiy mahorat talab qilinar ekan, hech ikkilanmay aytish mumkinki, O'tkir Hoshimovning "Telpak" hajviy hikoyasida buning to'liq isbotini ko'rish mumkin. Hikoya Bobur – "Po'nchik", Botir – "Tarasha" va o'zini Bahrom deb tanishtirgan qahramon tilidan hikoya qilinadi. Hikoyada o'zlarini "uch og'a-ini botirlari" deb bilgan loyiha institutining xodimlarini mukofot olishi-yu va ularning issiqqina qahvaxonaga kirib avval "Portveyn" keyin "yigirma oltinchisi" ichganliklari sababli hushyorlikni yo'qotganlari bu ham yetmagandek, Bahromning yangigina telpagi yo'qolib, sovuqda shumshayib ketishayotganda "operpunkt" oldidan chiqib qolishlari-yu, Botirni yo'qolgan telpakni topish maqsadida militsiyadan yordam so'rash taklifidan hamma balo boshlangani qiziqarli lavhalarda hikoya qilinadi.

"Telpak" hajviy hikoyasini boshqa hikoyalardan farqi shundaki, unda hayotda uchrab turadigan bir qancha nuqsonlari bor, jamoatchilik oldida o'zini qo'pol, go'l, johil, byurokrat kabi noqisliklari bilan namoyon bo'lgan militsiya xodimdagi noqisliklarning mohiyatini adib kulgi orqali ochib bergan.

Shu o'rinda aytish joizki, ijodkor hajviy qiyofani chizishda, avvalo, uning portretiga alohida ahamiyat beradi. Hikoyadagi militsiya xodimning ko'rinishi "Katalakdek xona to'g'risidagi stolda o'tirgan starshinaning vajohatini ko'rib baqa bo'lib qoldim! To'lanboy polvon uning oldida bog'cha bola! Har yelkasiga ikkitadan odam o'tirsa chirpirak qilib tashlaydi! Yuzlari qip-qizil. Soqol olayotganda bexosdan tig' tegib ketsa, kamida bir yarim litr qon oqsa kerag-ov!.. Starshina charchaganmi, uyqudan qolganmi, huzur qilib obdon esnadi"[2;224], yoki "Barkashdek yuzining markazida ko'rinib ko'rinmay turgan tugmachadek burni qimirlab ketgandek bo'ldi" [2;230]deya tasvirlanishi yuqoridagi fikrimizni asosli dalillaydi, ya'ni adib qahramon portreti tasvirini berishda yumordan unumli foydalangan.

Hikoyadan keltirilgan matndan ayonki, militsiya xodimini tashqi ko'rinishi o'ziyoq ziyrak kitobxonni e'tiborini tortadi va kelgusida davom etadigan voqealarga tayyorlaydi. Bunda adib o'zi hajv qilib, fosh etmoqchi bo'lgan shaxsni yaxshi o'rganib, hajvga zamin bo'la oladigan detallardan,

xususan starshinani xulq-atvori va nutqini kulgili qilib tasvirlaydi. Hikoyada, starshina o'z so'zi bilan aytganda "pastradavshiy" hisoblangan Bahromni kelib chiqish nasabi-yu, bobosini Ulug' Oktyabr revolyutsiyasidan oldin kim bo'lgani-yu, avval sudlanganmi yo'qmi kabi telpak yo'qolishiga aloqador bo'lmagan uzoq bema'ni og'zaki savol-javob o'tkazib bo'lgach, yana qaytadan uni so'roqqa tutadi. Savollaringizga javob berib bo'ldim-ku degan Bahromga: "Grajdanin Bahrom Xolmirzayev...– u qo'lidagi qog'ozga qarab oldi.–To'is... Xolmurodov! Boyagi aytganlaringiz og'zaki gap. Bunisi – dakument! Ayting-chi, pastradavshiy Xolmirza... to'is Xolmurodov, qaysi stadiya? Kapalagim uchib ketdi. – Qanaqa "statya?" –Statya emas, stadiya! — dedi starshina jerkibroq. – Isklerozingiz nechanchi stadiya? – Qanaqa skleroz? – Iskleroz bo'lmasangiz telpakni nega yo'qotasiz?"[2;226] kabi. Bu tasvirda asosan, qahramonning nutqida muallif badiiy tasvir vositalaridan va ayrim leksik resurslardan foydalangan. Xususan, hikoya bosh obrazi nutqidagi "pastradavshiy", "Iskleroz", "dakument", "stadiya", "statya" so'zlari shulardan ayrimlari bo'lib, ular qahramonning nutqidagi hajviy mazmunni kuchaytirishga yordamlashgan.

Hikoya bosh qahramoni "Asar voqealarining markazida turib, syujetni harakatga keltiradigan, yozuvchi ifodalamoqchi bo'lgan asosiy g'oyani o'zida tashiydigan shaxs" [5;59] starshina Eshboyevning ma'naviy qiyofasini ko'rsatib berishga bag'ishlangan hikoyaning o'ziga xos jihatlaridan yana biri uning Bahrom bilan o'rtasidagi savol-javob asosiga qurilganligida namoyon bo'ladi. Dialogning o'zidan starshinaning o'z kasbiga noloyiq odam ekanligi ma'lum bo'ladi. Fikrimizni isboti sifatida starshina Eshboyevning Bahromni qaysi kafega kirgani, kiyimlarni qaysi tomondagi ilgichga ilgani va burchakdagi, chap tomonda veshalkaligini bilgach "Nega chap tomonda?", "Nimadan yasalgan?" "Yog'ochmi, temirmi?", "Ilgagi nechta edi?", "Qanaqa ovqat?", "Necha porsa?", "Itak, qancha o'tirdingiz kafeda?", "Tish do'xtirga qatnab turasizmi?"deb so'rashiyu, nega bunday savol berayotganidan hayratlanib so'ragan Bahromga:

– Savolni men beraman, pastradavshiy Xolmirza... to'is, Xolmurodov! Tishingizning mazasi yo'qmi?

–Yo'g'-ye, tishim butun.

–Tishi butun odam to'rtta sosiskani bir soat yeydimi?"[2;227].

Adib ahyon-ahyonda bo'lsa-da ba'zi bir kimsalarda, xususan, starshina Eshboyev kabilarda uchraydigan illatlarni hikoyada keskin satira ostiga olish, o'tkir kulgi vositasida fosh qilish – hajv tig'i bilan jamiyat orasidan olib tashlashga harakat qiladi. Zero, satirik poeziya insonni ma'naviy-axloqiy mezonlar asosida tarbiyalash, uni jamiyatning faol kishisiga aylantirishni ko'zda tutadi. Hikoyani o'qir ekanmiz, yozuvchining xarakter yaratish mahorati yuksakligiga shohid bo'lamiz. Bu hikoyada starshina Eshboyevning nutqida, to'g'rirog'i uning jabrlanuvchiga bergan telpak yo'qolishiga daxldor bo'lmagan savollarida aniq ko'zga tashlanadi va aytish kerakki, adib bu hikoyada mubolag'adan o'rinni foydalangan. Hajviy hikoyadagi mubolag'a hajviy qahramonning qiyofasi yoki xatti-harakatlari orqali kulgi vujudga keltirishdan iborat. Hajviy hikoya davomida: "Telpagingiz qanaqa edi?", "Oti nima o'sha telpakning: kubankami, ushankami?" "Qachon sotib olgan edingiz?", "Qaysi paytda?", "Yozda olganmisiz, qishdami?", "Soat necha edi?", "Havo qanaqa edi?", "Necha so'mga olgan edingiz?", "Qayerdan?", "Qaysi bozordan?", "Kimdan olgansiz?", "Kim ekan o'sha telpakfurush?", "Telpak sotgan odam erkakmide, xotinmi?", "Alohida belgisi bormidi?", "Telpakni o'sha odamdan olganingizga guvohingiz bormi?", "Hozir ko'rsangiz taniysizmi?", "Astari qanaqa edi?", "Alohida belgilari bormidi?", "Mo'ynasi qanaqa edi?", "Qanaqa mo'yna edi?", "Norkami, qorako'lmi, andatrami?", "Alohida belgisi bormidi?", "Quyoning rangi qanaqa edi", "Erkakmide", "Quyoning erkakmide, urg'ochimi?"[2;229-230] degan bemaza Bahromga berilgan savollariga zo'rg'a chidab o'tirgan Botirning: "–Xunasa! –Xunasa quyoning edi!Bir oyog'i cho'loq edi! Bir ko'zi g'ilay edi!" [2;230] degan "salomiga qarab olingan alik"dan g'azablangan starshina Eshboyev ularni ichganlikda ayblab hushyorxonaga jo'natmoqchi bo'lganda, qochib qolishganini ertasi kuni kulib eslab o'tirishganda, kotiba qiz kelib direktor chaqirayotgani, borganda esa kechagi mashmasha uchun "ellik so'm" jarima kelgani, to'lamasa "o'n besh sutka" o'tirishni bilib, g'azablangan Bahrom yo'qoldi deb o'ylagan telpagini Botir papkasiga yo'qolib qolmasin deb solib qo'ygani ma'lum bo'lgani bilan hikoya yakun topadi.

Hikoya boshidan-oxirgacha kasbining mohiyatini yaxshi bilmagan byurokrat starshina Eshboyevning mana shu tarzidagi ahmoqxona, insonni asabiga tegadigan, mantiqsiz savollarini achchiq kinoya qilishga yo'g'rilgan. Yozuvchi hikoyada oddiy va xalqona til imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanish natijasida hikoya qahramonini o'z ishiga mas'uliyatsizligi, tajribasizligi

ADABIYOTSHUNOSLIK

fosh eta olgan. Ko'rinib turibdiki, adib "...kun tartibiga inson hayotining o'zak masalalarini qo'yib, har bir fikrlovchi odamni tashvishga solmay qo'ymaydigan "la'nati savollar"ga javob izlaydi"[6;485]. Ya'ni, hikoya zamirida insonni ilmsizlik, kasbini chuqur egallamasa shu holga tushishiga olib kelishidan ogoh qilish da'vat g'oyasi mujassam. Umuman, hikoyada O'.Hoshimov qahramonlarning tashqi ko'rinishi, nutqi va turli badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalangan. Natijada, adibning "Shunday asar yozsangki, kitobxon uni o'qiganida hamma narsani unutsa. Asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Quvonsa, iztirob cheksa..."[7;2] degan orzusi amalga oshgan, deb hisoblaymiz.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, O'tkir Hoshimov hajviy hikoyalarda, xususan "Telpak" hikoyasida kasbga nisbatan layoqatsizlik, byurokratizm, saviyasizlik, qoloqlik kabi insonga xos illat, noqisliklarni fosh etuvchi, kinoyali satirik kulgi ustunlik qiladi. Umuman, hikoyada, hajviyot, kulgi vositasida muhim ijtimoiy-siyosiy masala o'rta qo'yilgan. Shuningdek, adibning hayot haqiqatini hikoyasida aniq ayta olish va o'zi yashagan davrning hajviy tipini yaratish olishi alohida e'tirofga loyiq. Demak, hikoya starshina Eshboyev kabi insonlar timsolida hajviy xarakterning takrorlanmas o'ziga xos obraz yarata olganligi bilan qimmatli va o'qimishli.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Axmedova Sh. Yumor jilolari. – T.: Fan, 1998. (Akhmedova Sh. Smiles. - T.: Science, 1998.)
2. O'.Hoshimov. "Ajdar"ning tavnasi.– T.: O'zbekiston, 1993. (U. Hoshimov. Repentance of "Ajdar". - T.: Uzbekistan, 1993).
3. F.Salayev, G.Qurbanniyozova. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi. – T.: Yangi asr avlodi, 2010. (F. Salayev, G. Gurbanniyozova. Explanatory dictionary of literary terms. - T.: New age generation, 2010)
4. A.Rasulov. Badiiylik – bezavol yangilik. –T.:Sharq, 2007. (Rasulov. Art is vanity. - T.: Sharq, 2007.)
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'zbekiston, 2002.(Boboyev T. Literary studies. - T.: Uzbekistan, 2002.)
6. N.Karimov va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. –T.:O'qituvchi. 1999.(N. Karimov and others. History of 20th century Uzbek literature. - T.: Teacher. 1999)
7. O'tkir Hoshimov. Tanlangan asarlar. –T., Sharq, 2009.(Utkir Hashimov. Chosen ones. -T., Sharq, 2009)